



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA
BOSHQARMASI

TOSHKENT SHAHRIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI


2023-YIL YANVAR-APREL



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog'idir.

2023-yilning 1-iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2023-yilning 1-iyun holatiga ko'ra, Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni **9041** ming birlikni tashkil etdi. Xizmatlar sohasida **7060** ming birlik korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ularning umumiy sonining **75,6 %** ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **108,3 %** ni tashkil etgan.

Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi ma'lum vaqt davomida iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.


Toshkent shahar bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-aprel oylarida) ¹⁾



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, **2023-yilning yanvar-aprel oylarida** bozor xizmatlari hajmi **50811,7** mlrd.so'mga yetdi. **2022-yilning yanvar-aprel oylariga** (**116,4** %) nisbatan o'sish sur'ati **116,4** % ni tashkil etgan.


¹⁾ Bu va bundan keyingi ko'rsatkichlar metodologiyaga muvofiq har bir keyingi yil qayta ko'rib chiqilgan

Tumanlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar -aprel oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	50 811,7	100,0	116,4
Uchtepa	2 832,0	5,6	109,8
Bektemir	1 740,4	3,4	112,3
Yunusobod	8 176,0	16,1	120,9
Mirzo Ulug'bek	5 114,8	10,1	121,6
Mirobod	5 491,3	10,8	110,4
Shayxontohur	5 629,3	11,1	119,7
Olmazor	4 083,9	8,0	112,9
Sergeli	2 601,6	5,2	123,1
Yakkasaroy	4 366,2	8,6	112,7
Yashnobod	4 458,8	8,8	116,9
Yangihayot	814,9	1,6	117,4
Chilonzor	5 502,5	10,8	115,0

¹⁾ tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (aprel oyida)



2023-yilning yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 17 123,9 ming so'mga yetdi. 2022-yil yanvar- aprel oylariga nisbatan o'sish sur'ati 112,6 % ni tashkil etgan.

2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ Hajmi, ming so'mda ● O'sish sur'ati, % da


Tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar (2023-yil yanvar- aprel oylarida)

	Hajmi, ming. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	17 123,9	112,6
Uchtepa	9 619,1	107,0
Bektemir	30 907,8	103,0
Yunusobod	22 201,9	118,2
Mirzo Ulug'bek	15 785,5	118,1
Mirobod	36 655,7	107,9
Shayxontohur	15 584,6	117,7
Olmazor	10 310,7	110,2
Sergeli	15 956,6	111,3
Yakkasaroy	34 176,1	109,7
Yashnobod	15 309,7	112,3
Yangihayot	5 007,2	110,0
Chilonzor	20 199,1	112,9

2023-yilning yanvar- aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida moliyaviy xizmatlarning ulushi **34,2** % ni tashkil etdi. Shu bilan bir qatorda, transport xizmatlari **9,6** %, savdo xizmatlari **21,3** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **10,2** %, ta'lim xizmatlari **4,3** % darajasida qayd etildi. Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning ulushi **2,5** % darajasida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar- aprel oylarida, % da)




Taqqoslash uchun: 2022-yilning yanvar- aprel oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi moliyaviy xizmatlar **34,2** % ni, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlili sohasidagi xizmatlar esa **2,5** % ni tashkil etgan.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-aprel oylarri)

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	50811,7	100,0	116,4
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	5192,7	10,2	123,3
Moliyaviy xizmatlar	17384,4	34,2	121,1
Transport xizmatlari	4864,7	9,6	124,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	2562,5	5,0	110,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	1938,1	3,8	109,2
Savdo xizmatlari	10826,8	21,3	108,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	1805,3	3,6	113,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	2208,4	4,3	117,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1006,5	2,0	98,8
Ijara xizmatlari	732,1	1,4	115,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	264,2	0,5	106,9
Shaxsiy xizmatlar	623,7	1,2	109,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1271,7	2,5	110,6
Boshqa xizmatlar	2694,7	5,3	111,2

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (yanvar-aprel oylarida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **4 583,1** mlrd. so'mga oshib, **17384,4** mlrd. so'mga yetdi. Umumiy hajmida ushbu xizmatlarning ulushi **34,2 %** ni tashkil etdi. Umumiy moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **116,4 %** ni tashkil etdi.

2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ Hajmi, trln. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

Moliyaviy xizmatlar tarkibi


(2023- yil yanvar-aprel oylarida)

2023-yilning yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **90,7 %** ni tashkil etdi.

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar

Yordamchi moliyaviy faoliyat




Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.


2023- yilning 1-iyun holatiga ko'ra, tashish va saqlash bilan bog'liq faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **20 207** birlikni, yoki ularning umumiy sonining **5,3 %** ini tashkil etdi. Ulardan **19 991** birlik (**98,9 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

2023-yil yanvar-aprel oylarida transport xizmatlari hajmi **4864,7** mlrd. so'mni tashkil etib, **2022-yil yanvar-aprel oylariga** nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **124,6 %** ni tashkil etdi.

Transport xizmatlari (yanvar-aprel oylarida)




Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi
(2023-yil yanvar-aprel oylarida)



Avtomobil transporti xizmatlariga temir yoʻlda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yoʻlovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish boʻyicha xizmatlar va koʻchish boʻyicha xizmatlar kiradi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida avtomobil transportida koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2562,5** mlrd. soʻmga yetdi.

Avtomobil transporti xizmatlari (yanvar-aprel oyilarda)




2022-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan ushbu xizmatlar hajmining **4,2** % ga pasayganligi qayd etildi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **10,6** %ni tashkil etdi.

Avtotomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yoʻlovchilarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **59,6** %.

Taqqoslash uchun: **2022-yil yanvar-aprel oylarida** ushbu koʻrsatkich **59,0** % ni tashkil etgan.

Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi




Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

2023- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchilarning ulushi (**46,4 %** yoki **177,0** ming birlik) yetakchilik qilmoqda. Ulardan **99,6 %** ini (**176,3** ming birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etadi.

2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 2023- yil yanvar-aprel oylarida savdo xizmatlari hajmi **1 581,2** mlrd. so'mga oshib, **10826,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan ushbu turdagi xizmatlar hajmining **2,0 %** ga oshganligi qayd etildi.

Savdo xizmatlari (aprel oyida)




Savdo xizmatlarining umumiy hajmida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlarining ulushi **21,3 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1-may holatiga ko'ra «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **11,9** ming birlikka yetdi, shundan **11,5** ming birligi kichik tadbirkorlik subyektlari bo'lib hisoblanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (yanvar-aprel oylarida)



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ Hajmi, trln. so'mda ●→ O'sish sur'ati, % da

2023- yilning yanvar-aprel oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **5 192,6** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, **2022- yilning yanvar-apreliga** nisbatan o'sish sur'ati **123,3** %ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-aprel oylarida)

Telekommunikatsiya xizmatlari – **45,1** %

Kompyuterda dasturlashtirish bo'yicha xizmatlar – **12,2** %

Axborot xizmatlari – **13,5** %


Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – **29,1** %

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog’i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta’limni va turli kasblarga o’rgatishni o’z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta’lim, shuningdek, kattalar uchun ta’lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta’lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o’xshash boshqalar kiradi.

Ta’lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o’qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko’rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Ta’lim sohasidagi xizmatlar (yanvar-aprel oylarida)




2023- yil yanvar-aprel oylarida ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi 2 208,0 mlrd. so’mgga yetdi. 2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan o’sish sur’ati 117,9 % ni tashkil etdi.

Ta’lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta’lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ularning ulushi 4,3 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **11 442** birlikni tashkil etdi, shundan **9 822** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar-aprel oylarida)



2023- yil yanvar-aprel oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **1006,3** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **2,0** % ini tashkil etdi.

2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ Hajmi, trln. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

Tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

Tuman	Hajmi, mlrd. so'mda
Toshkent shahar.	1006,3
Uchtepa	71,9
Bektemir	47,8
Yunusobod	105,6
Mirzo Ulug'bek	120,0
Mirobod	56,4
Shayxontohur	100,2
Olmazor	137,9
Sergeli	69,0
Yakkasaroy	102,2
Yashnobod	73,1
Yangihayot	14,2
Chilonzor	108,1


Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2023- yilning 1-aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **35 065** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **34 901** birlik kichik biznes subyektlaridir.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (yanvar-aprel oylarida)

2022-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 2023-yil yanvar-aprel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **5,7 mlrd. so'mga** oshib, **1393,8 mlrd. so'm**ni tashkil etdi.




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-aprel oylarida)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar *(yanvar-aprel oylarida)*



2023-yilning yanvar-aprel oylarida

ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **1805,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **3,6 %** ni tashkil etdi.

2022-yil yanvar- aprel oylariga nisbatan o'sish sur'ati 113,7 % ni tashkil etgan.

2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ Hajmi, trln. so'mda —●— O'sish sur'ati, % da

Tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi


(2023-yil yanvar-aprel oylarida, mlrd. so'mda)



¹⁾ tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ijara xizmatlari (yanvar-aprel oylarida)



2022-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan ijara xizmatlari hajmi **181,8** mlrd. so'mga oshib, **2023- yil yanvar-aprel oylarida 732,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **1,4** % ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023-yil yanvar-aprel oylarida** avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **57,4** % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining to'lov qobiliyati va imtiyozlarining oshishiga, shuningdek, iste'molchilarning, ayniqsa AKTdan foydalangan holda zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 71-203-88-15 (25)